

**TURIZM YO'NALISHIDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARGA INGLIZ TILINI
O'QITISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI TAHLILI**

Toshmatova Sitora Azizbek qizi

"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

Turizm fakulteti ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Talabalarga ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatish (EFL) murakkab, ammo foydali tajribadir, deyish mumkin. EFL o'qituvchilari ijobjiy ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarning ehtiyojlarini munosib baholash hamda samarali va qiziqarli dars rejalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Quyida muhokama qilinayotgan maqolada turizm sohasida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda duch kelinadigan muammolar va ularni hal etish uchun bir qancha yechimlar berilgan .

Kalit So'zlar: Turizm, xorijiy til, ingliz tili, EFL, CLT, globallashuv, iqtisodiyot, differensial ta'lim, podcast, gapirosh, tinglab tushunish, ko'nikmalar.

Abstract: Teaching English as a foreign language (EFL) to students can be a challenging but rewarding experience. EFL teachers must be able to create a positive learning environment, assess students' needs, and develop effective and engaging lesson plans. The article discussed below presents the problems of teaching English as a foreign language to students studying tourism and some solutions to solve them.

Key Words: Tourism, foreign language, EFL, CLT, globalization, economy, differential education, podcast, speaking, listening, skills.

Аннотация: Преподавание английского языка как иностранного (EFL) студентам может быть сложным, но полезным опытом. Учителя EFL должны быть способны создавать позитивную учебную среду, оценивать потребности учащихся и разрабатывать эффективные и увлекательные планы уроков. В статье, обсуждаемой ниже, представлены проблемы преподавания английского языка как иностранного студентам, изучающим туризм, и некоторые пути их решения.

Ключевые Слова: Туризм, иностранный язык, EFL, CLT, глобализация, экономика, дифференцированное образование, подкаст, разговор, слушать, навыки.

KIRISH: Turizm – bu insonlarning odatdagi muhitdan dam olish, biznes yoki boshqa maqsadlarda amalga oshiruvchi sayohat turi hisoblanadi. Ushbu sayohatni qo'llab-quvvatlaydigan barcha faoliyatlar, xizmatlar turizm sohalarni o'z ichiga qamrab oladigan faoliyat turlari hisoblanadi. Turizm global hodisa bo'lib, u dunyodagi eng yirik va eng tez rivojlanayotgan sohalardan biridir. Bu soha har bir davlatga trillionlab dollar daromad keltiribgina qolmay, millionlab ish o'rinalarini ham yaratib beradi. Shuningdek, turizmnning jadal rivojlanayotgani va davlatlar tomonidan katta ahamiyatga molik ko'rilibayotgani sabablarini quyidagi asoslarga bog'lash mumkin:

- *Iqtisodiy o'sishni kuchaytirish;*
- *Ish o'rinalarini yaratish;*
- *Madaniy tushunishni targ'ib qilish;*
- *Atrof-muhitni muhofaza qilish;*
- *Barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash;*
- *Turizm bahona, yashovchi xalqqa ham yuqori sifatli sharoitlar yaratilishi va hokazolar.*

Modomiki, turizm sohasi davlatlar uchun yuqoridagi kabi foydalarni keltirar ekan, bu sohada yetuk kadrlar yetkazib chiqarish ham o'ta muhim masala hisoblanadi. Va o'z navbatida, bo'lajak kadrlar sohani xalqaro ravishda rivojlantirishlari uchun, albatta, xorijiy tillarni o'rganishga ehtiyoj sezadilar. Bu o'rinda biz ingliz tilini eng samarali va kerakli til, deya bemalol ayta olamiz, sababi, bu til global til hisoblanadi va dunyo aholisining tahminan 7/1 qismi, ya'ni 1.35 milliard odam ingliz tilida gapiradi. Shu sababdan, ingliz tilini o'rgatish ham, o'rganish ham turizm sohasi vakillari bilishni talab etiladigan ixtisoslashgan soha sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Oksford universiteti olim va izlanuvchilari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, turizm sohasida tahlil olayotgan talabalarga ingliz tilini o'rgatishning eng samarali usuli bu kommunikativ tilni o'qitishga (Communicative Language Teaching – CLT) e'tibor qaratishdir. CLT ingliz tilini o'rgatishning usullaridan biri bo'lib, u o'quvchilarga real vaziyatlarda samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqorida aytib o'tilgan tadqiqotda turizmsohasida tahlil olayotgan talabalariga ingliz tilini o'rgatish uchun CLT dan foydalanish mumkin bo'lgan ba'zi bir aniq metodlar ham tavsiya etilgan. Jumladan:

1. Haqiqiy (authentic) materiallar va vazifalarga e'tibor qaratish. CLT sinfda turistik broshyuralar, veb-saytlar va videolar kabi haqiqiy materiallardan foydalanishga, shuningdek, turistlar bilan rolli suhbatlar va turistik yo'nalishlar haqida taqdimotlar o'tkazish kabi haqiqiy vazifalardan foydalanishga urg'u qaratib borish.
2. Muloqot va hamkorlik uchun imkoniyatlar yaratish. CLT talabalarga ingliz tilida bir-birlari bilan muloqot va hamkorlik qilish imkoniyatini yaratib berish. Buni juftlik, guruhlarda ishslash va rolli o'yinlar orqali amalga oshirish mumkin.
3. Talabalarni ingliz tilidan ijodiy foydalanishga undash. CLT talabalarni o'z fikrlarini ifoda etish va muammolarni hal qilish uchun ingliz tilidan ijodiy foydalanishga undaydi. Buni she'r va hikoyalari yozish, rol o'ynash, taqdimotlar yaratish kabi faoliyatlar orqali amalga oshirish mumkin.

Turizm yo'nalishida tahlil oluvchi talabalarga ingliz tilini o'rgatish uchun CLT metodidan tashqari, fan tomonidan qo'llab-quvvatlangan boshqa bir qator usullar ham mavjud:

1. Texnologiyalardan foydalanish: Texnologiya o'quvchilarga asosan kengroq

manbalardan foydalanishni ta'minlash va yanada qiziqarli ta'lim tajribasini yaratish uchun ishlatalishi mumkin. Bunda yosh avlod texnika bilan tez til topishishi, unga nisbatan qiziqish bilan qarashi ham hisobga olingan. Misol uchun, o'qituvchilar ingliz tili darslarini qiziqarli o'rgatish va mustahkamlash uchun onlayn o'rganish platformalari, onlayn viktorinalar, topshiriqlar, til o'rganish ilovalari va video konferensiya dasturlaridan foydalanishlari mumkin.

2. Differensiatsiya - bu o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish jarayoni.

Bu turizm fakulteti talabalariga ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, sababi bu yo'nalihsda o'quvchi taabalar orasida turli millatdan kelib chiqqan va ingliz tilini bilish darajasi turlicha kursdoshlar bo'lishi mumkin. Bu holatda o'qituvchilar turli xil o'qitish usullari va mashg'ulotlarini qo'llashlari va talabalarning kelib chiqish va bilish imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda, ularga yordam berish orqali ta'limni farqlashlari muhim.

3. Motivatsiya: Tilni samarali o'rganish uchun motivatsiya juda muhim omil sanaladi.

O'qituvchi ijobiy ta'lim muhitini yaratish, talabaga muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini taqdim etish va o'rganishni uning qiziqishi, yoshi, psixologik holati va kelajakdagi martabasiga moslashtirish orqali turizm talabalarini ingliz tilini o'rganishga undashi mumkin.

Turizm yo'nalihsida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini o'rgatishning samarali usullari haqida fikr bildirgan olimlardan bir necha misollar keltiramiz:

Britaniyalik amaliy tilshunos doktor Maykl Svon kommunikativ tilni o'rgatish bo'yicha o'z ishlari bilan mashhur. Svon o'zining "Practical English Usage" kitobida CLT turizm sohasida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini o'rgatishning eng samarali usuli ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Doktor Pennikuk britaniyalik amaliy tilshunos bo'lib, tanqidiy pedagogika bo'yicha ishlari bilan mashhur. Pennykuk o'zining "Critical-theoretical linguistics" kitobida turizm talabalariga globallashgan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish uchun CLTni tanqidiy pedagogika bilan birlashtirish kerakligini ta'kidlab o'tgan¹.

Doktor Ben Rampton ingliz amaliy tilshunos bo'lib, til va ijtimoiy o'zaro ta'sirga oid ishlari bilan tanilgan. Rampton o'zining "Planning and language politics" kitobida turizm ta'limida CLTni qo'llab-quvvatlash uchun til siyosati va rejalashtirishdan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi.

Bu olimlarning barchasi turizm sohasida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini samarali o'rgatish bo'yicha o'zining qimmatli bilim va ko'nikmalarini o'z asarlarida keltirib o'tib hissa qo'shishgan. Ular yaratgan ishlar o'qituvchilarga o'z talabalarini uchun samarali va qiziqarli ingliz tili darslarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin.

¹ Charles A. Goeldner, J.R. Brent Ritchie. Tourism PRINCIPLES, PRACTICES, PHILOSOPHIES, New Jersey, John Wiley & Sons, 2012,-514p

NATIJALAR: Turizm sohasidagi talabalarga ingliz tilini o'rgatishda bir qator muammolar mavjud. O'rganishlarimizga ko'ra, bu muammolarni keltirib chiqaruvchi bir qancha omillar mavjud va ular quyidagilardan iborat::

1. Cheklangan vaqt va resurslar: Turizm sohasida ta'lif oluvchi talabalar

Uchun mahsus o'quv qo'llanmalar va darsliklar deyarli yo'q. Darsga mos materiallar izlash, ularni tartiblash, o'quvchilarga moslab turlarga ajratish uzoq vaqti va energiya talab etuvchi jarayon hisoblanadi.

2. Turli xil talabalar jamoasi: Talabalar orasida har xil yosh, millat, va hatto

din vakillari bo'lishi mumkin, shu sababdan, fikrlash va madaniyat qaramaqarshiliklari kelib chiqishini hisobga olish o'qituvchi uchun o'ta dolzarb hisoblanadi.

3. Texnik ko'nikmalarga e'tibor qaratish: Til o'rganish jarayonini samarador

Va qiziqarli qilish, albatta, texnikadan foydalanishni talab etadi. Bu borada bilimi past talaba ham, o'qituvchi ham, albatta, muammoga duch keladi.

4. Motivatsiya etishmasligi: Bu xorijiy til o'rganishdagi eng katta muammo

hisoblanadi. Sohani tanlagan talabada turli sabablar: oilaviy sharoyit, atrof-muhit ta'siri, jismoniy muammolat va hokazolar tufayli ba'zan motivatsiya tushishi kuzatilishi mumkin.

Yuqorida muammolarga biz quyidagilarni yechim sifatida taklif etamiz:

1. Grammatik mavzularni turizm mavzusiga oid matnlar bilan boyitgan holda,

o'rganishning har bir darajasiga moslab, talabalarining ijtimoiy kelib chiqishini hisobga olib, neytral holatdagi yaxlit darsliklar yaratish va ularning onlayn versiyalarini ham ishlab chiqish;

2. Material (handout) tanlayotganda neytrallikka katta e'tibor qaratish.

Guruhda o'rtacha yoshni hisobga olish, turli dinlar va madaniyatlar targ'ibini anglatuvchi materiallardan yiroq bo'lish, madaniyatlararo shok (culture shock) keltirib chiqarishdan holi bo'lish; shuningdek, turli tabaqadagi talabalarga ta'lif berishda onlayn platformalardan faol foydalanish;

3. Texnikalar vositasida dars o'tilganida, avvalo, talabalarga ulardan qanday

foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'qituvchilar esa bu bo'yicha mahsus kurslarda o'qishi;

4. Motivatsiya yetishmovchiligi kelib chiqmasligi uchun darsda ijodiy

muhitni yaratish, talabaning individual qiziqishlarini ham hisobga olish, kelajak kasbini aniq tasavvur qila olishi uchun real materiallardan foydalanishiga imkon berish, mehmonxonalar, tarixiy obodalar, umuman, turizmga oid obyektlarga ekskursiyalar yushtirish, bundan tashqari, rolli o'yinlar, guruh muhokamalari, taqdimotlar, ingliz tilidagi filmlar va teleko'rsatuvlarni tomosha qilish lozim.

XULOSA qilib aytganda, yuqorida bergen takliflarimizning asl mohiyati shulardan iboratki, dars davomida talabalarga ingliz tilida gapirish va tinglashni mashq qilish imkoniyatini berish lozim. Bu ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarurdir. Buni o'quvchilarni juftlik, guruh ishlari va rolli o'yinlarda

ishtirok etish orqali amalgalash oshirishi mumkin. Shuningdek, autentik materiallar va misollardan foydalanish ham til o'rganishdagi muammolarni bartaraf etishda yordam beruvchi vositalardan biridir. Bu talabalarga turizm sohasida ingliz tilidan qanday foydalanimishini ko'rishga yordam beradi. Masalan, o'quv materiallari sifatida turizm risolalari, veb-saytlar va videolardan foydalanish, turistik obyektlarga olib borish, sayyoohlар bilan real suhbatlar tashkil etish mumkin. O'rganishni qiziqarli va samarali qilish o'quvchilarining g'ayratli va faol bo'lishiga yordam beradi. Darslarda qiziqarlilikni ta'minlashning o'yinlar, boshqotirmalar va boshqa mashg'ulotlardan foydalanish kabi bir qator usullari mavjud.

Shuni ham yodda tutish kerakki, har bir talaba o'z tezligida o'rganadi. Sabrli va qo'llab-quvvatlang va talabalarga muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni taqdim eting.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.04.2023 yildagi PQ-135-sonli qarori;
2. Alimova M.T. "Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)". Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2017 y.
3. Adrian Franklin "Tourism: an introductions". SAGE Publications London-Thousand Oaks-New Delhi 2003.
4. Boltaboyev M.R., Tuxliyev I.S., Muhamadiyev A.N., Abduxamidov S.A. "Turizm: nazariya va amaliyot" fanidan elektron darslik yaratish texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. -S., 2016.
5. Charles A. Goeldner, J.R. Brent Ritchie. Tourism PRINCIPLES, PRACTICES, PHILOSOPHIES, New Jersey, John Wiley & Sons, 2012,-514p.
6. Hubbard, Graham, Strategic Management: Thinking, Analysis and Action, 2004,2nd edition, Prentice-Hall, Freehs Forest
7. John Tribe. Strategy for Tourism; London: Goodfellow Publishers Limited, 2016, -288 p.
8. Kotler F., Bouen Dj., Meykenz Dj. Marketing. Gostepriimstvo. Turizm: Uchebnik dlya vuzov. Vtoroye izdaniye. -M.: YUNITI - DANA, 2002.
9. Usmanova Z.I. "O'zbekistonda turistik - rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari" iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (doctor of philosophy) dissertatsiyasi. 2018 y.
10. Квартальное В.А. Туризм: история и современность. -М.: Финансы и статистика, 2002.
11. Qudratov G\H., Tuxliyev I.S. Turizm iqtisodiyoti. 0 'quv qo'llanma. - S.: SamSI, 2007.

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

6 – TOM 12 – SON / 2023 - YIL / 15 - DEKABR

12. Stephen J. Page. *Transport and Tourism: Global Perspectives*, Third ed. Harlow (England), London. New York [etc.]. Pearson Education Limited. 2009.